

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI BO'LAJAK PEDAGOGLARINING IJODIY QOBILIYATLARINI MILLIYLIK RUHIDA RIVOJLANTIRISH

Salimova Dilmira Farxodovna

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Alfraganus Universiteti "Pedagogika va psixologiya"
kafedrası dotsent v.b.*

Annotasiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lajak pedagoglarining ijodiy qobiliyatlarini milliylik ruhida rivojlantirish imkoniyatlari keltirilgan. Ulardagi shijoat va intilishni alohida pedagogik muammo sifatida o'rganish yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, madaniyat, maktabgacha yosh, ijodiy qobiliyat, milliylik, tarbiyachi-pedagog, kasbiy kompetentlik, ta'lim-tarbiya, talaba

Yurtimizda oxirgi yillarda yaratilayotgan mavjud imkoniyatlar aholining ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini asta sekinlik bilan yechishga qaratilmoqdi. Ayniqsa, yoshlarga g'amho'rlik ko'rsatishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglaridagi shijoat va intilishni alohida pedagogik muammo sifatida o'rganish esa ularni ish faoliyatiga tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda olib borilayotgan uzluksiz ta'limdagi ulkan islohatlar barcha ta'lim bosqichlarida o'z samarasini ko'rsatib kelmoqda. Xususan, 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-son "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori uzluksiz ta'limning birinchi bug'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimida ham izchil o'zgarishlar amalga oshirishga zamin yaratdi va milliy g'oyalar bilan yangilanib bormoqda.[1] Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh

qilishdan maqsad, barcha maktabgacha ta'lim yoshidagi bolajonlarni ta'lim tizimiga qamrab olish, hamda ularni beg'ubor bolalik davrida sog'lomlashtirish va dastlabki bilim va ko'nikmalarga o'rgatib borishdir. O'zbekiston Respublikasida qobiliyatli yoshlarni aniqlash, ularga ta'lim-ta'lim tarbiya berish va ularni qo'llab-quvvatlash masalasiga davlat siyosati darajasida ahamiyat bermoqda. Qobiliyatli yoshlarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularni ijodiy faoliyatlarini rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan bir qancha jamg'armalar va tanlovlar, ko'rsatilayotgan e'tiborning yorqin ko'rinishidir. Hozirgi kunda Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlari va kompleks choralarni ishlab chiqishga asos bo'ladi. Xujjat malakali pedagog kadrlarni yetishmovchiligi, moddiy-texnik holatini nomuvofiqligi, hamda davlat MTTlarining o'quv-metodik materiallari bilan past darajada ta'minlanganligi kabi muammolarni bartaraf etishni ko'zlaydi.[2] Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarida ijodiy qobiliyatning namoyon bo'lishi, milliy an'analarimizni targ'ib qilishda ham, ular tomonidan kasbiy faoliyatni samarali yo'lga qo'yishda ham o'ziga hos ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ijodiy qobiliyatli pedagog ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonini milliylik asosida tashkil etishga erisha oladi. Ijodiy qobiliyatlilik peadodlarga ta'lim-tarbiya faoliyatlarini, ma'naviy-tarbiyaviy tadbirlarni no'anaviy shakl, milliy qadriyatlarimiz aks etgan metod va vositalar yordamida uyushtirishga yordam beradi. Shuningdek, tarbiyalanuvchilarni ta'lim-tarbiya jarayonida faol ishtirok etishga, ma'naviy-tarbiyaviy tadbirlarda ixtiyoriy qatnashishga, o'z imkoniyatlarini namoyon etishga jalb qila oladilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyachisi belgilangan Davlat o'quv dasturini amalga oshirishda bolaning shaxsiga hurmat ko'rsatadi va ta'lim va tarbiya jarayonini dastur tamoyillariga muvofiq tashkil qiladi. U doimiy ravishda kasbiy kompetentligini takomillashtirish uchun o'z kasbiy faoliyatini hujjatlashtiradi, tahlil qiladi va baholaydi.[3] Muayyan jamiyatda asrlar davomida ijtimoiy munosabatlarni yo'lga

qo'yishda shaxsning fiziologik, psixologik va jismoniy rivojlanishiga ko'ra yondashish tajribasi shakllangan.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari orasida ijodiy qobiliyatli talabalarni saralash, bevosita ularni qobiliyatlarining yo'nalishlari va darajalariga ko'ra muayyan guruhlariga birlashtirish asosida maxsus ta'lim asosida o'qitilishni talab qiladi. Bunday maxsus ta'limlarni tashkil etish o'ziga xos afzalliklarga ega bo'lib, uni joriy etish orqali:

- har bir talabaning psixologik xususiyatlari, shaxsiy sifatlarini inobatga olish asosida yondashish;
- talabalarning ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarini aniqlash orqali boshqarish;
- ko'zlangan maqsadga erishish uchun mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish;
- bo'lajak mutahassislarda qunt va chidamlilik kabi sifatlarini mustahkamlash;
- ularda mas'uliyat tuyg'usi va intizomga qat'iy amal qilish sifatlarini tarbiyalash;
- talabalarning bilish jarayoniga nisbatan befarq bo'lmasliklariga erishish asosida ularning ijodiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirish;
- bo'lajak mutahassislarda o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash va erishilgan yutuqlaridan faxrlanish tuygusini shakllantirish;
- talabalarni ijodiy izlanishga rag'batlantirish orqali ularda tadqiqotchilik malakalarini takomillashtirish;
- ta'lim jarayonini erkinlashtirish, talabalarning mustaqillik ko'nikmalariga ega bo'lishlariga erishish;
- talabalarda o'z kuchi va imkoniyatiga bo'lgan ishonch hamda yorqin istiqbolga ishonch hissini tarbiyalashga erishiladi.

Maxsus tashkil etilgan ta'lim asosida har bir pedagog qobiliyatli talabalarning ichki imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish, ularda ijodkorlik xislatlarini shakllantirishga o'z hissasini qo'sha olishi talab etiladi. Zero, bo'lajak maktabgacha

ta'lim tashkiloti pedagoglarining ijodiy qobiliyatlari ta'lim muassasasi jamoasi e'tiborini yagona maqsadga qaratish, shuningdek, bu jarayonga jamoatchilikni faol jalb etish orqali erishiladi. Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish doimiy ravishda badiiy asarlarni o'qib borish, kino, teatr, musiqa, hunarmandchilik va tasviriy san'at namunalari bilan tanishish, asarlardan bahramand bo'lish, ularga nisbatan shaxsiy baho berish hamda ko'proq tabiat qo'ynida bo'lish asosida rivojlanib boradi. Shunday ekan, ijodkorlikni ijodiy qobiliyatga ega shaxs faoliyatining muhim jihati deb, u avval mavjud bo'lmagan sifatiga ko'ra yangi sanaluvchi narsalarni yaratishni ifodalaydi deya olamiz. Ijodiy qobiliyat namoyon bo'lishi va natijasiga ko'ra betakror, o'ziga xoslik, shu bilan birga ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega faoliyat mazmunini aks ettiradi. Shaxsda ijodkorlik sifatlari muayyan shart-sharoitlar mavjud bo'lgan sharoitlardagina rivojlanadi. Masalan, tanqid erkinligi, ijodiy munozara, fikrlar almashinuvi va ular o'rtasidagi o'zaro kurash, ijodiy qobiliyat, iqtidorni yanada rivojlantirishga yordam beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bo'lajak tarbiyachilarga faoliyatlaridagi muammoli vaziyatlarni yechishi, ta'lim-tarbiya jarayonining pedagogik faoliyati mohiyatini to'g'ri anglab yetishi, kutilmagan vaziyatlarga tayyor turishi, yuzaga kelgan ziddiyatlarni ijobiy hal etishi, bolalar va ularning ota-onalariga bevosita pedagogik yordam ko'rsatishlari uchun ijodiy qobiliyatlarini milliylik ruhida rivojlantirish mustahkam zamin bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-son “2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”
2. 2019 yil 08 mayda PQ-4312 son “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”
3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi– T.:2022
4. Salimova D.F. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda syujetli-rolli o'yinlar vositasida axloqiy sifatlarini shakllantirishning samarali metodlari” nomli metodik qo'llanma Toshkent, 2021